



SHEVA, DIALEKT VA LAHJALARNING XUSUSIYATLARI, ULARNI
O‘RGANISH METODLARI

Eshmirzayeva Nilufar

Termiz davlat universiteti

2 -kurs magistranti lingvistika-o‘zbek tili yo‘nalishi

Dunyo tilshunosligida dialekt (sheva)lardagina uchraydigan dehqonchilik, chorvachilik va turli kasb egalari nutqiga xos leksikani lug‘atlashtirish, leksikografik, leksikologik tadqiqi boshqa rivojlangan tilshunoslik maktablari qatori rus tilshunoslari uchun ham asosiy o‘rganish ob‘yektiga aylandi. XX asrning boshlarida yuzaga kelgan ushbu tadqiq usuli o‘zbek tilshunosligida ham samarali ilmiy tadqiqotlarni vujudga kelishiga asos bo‘ldi.

O‘zbek tiliga davlat maqomining berilishi o‘zbek tilshunosligi zimmasiga bajarilishi lozim bo‘lgan katta vazifalarni yukladi. Ana shu vazifalardan biri xalq shevalari lug‘at xususiyatlarini tadqiq qilishdir. Sheva leksikasi bo‘yicha kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, dialektal farqlar o‘zbek tilida juda ko‘p va xilma-xildir. Shuning uchun o‘zbek tili ayrim shevalarining leksik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek dialektologiyasida eng dolzarb va muhim masalalardan biridir. Dialektal leksikani o‘rganish til tarixi va hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga aloqador masalalar – ba‘zi so‘z, affikslarning tarixi va genezisini belgilashda, leksik me‘yorni aniqlashda, terminologiya, orfografiya masalalarini hal qilishda, o‘zbek shevalarining atlasini tuzishda, shuningdek, ko‘p tomlik o‘zbek xalq shevalari lug‘atini yaratishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek shevashunosligida mavjud bo‘lgan ilmiy adabiyotlarda, sheva, lahja va dialekt atamaları turlicha ma'nolarda qo‘llanilib kelmoqda. Shevalar bir-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lganliklari holda tilimizning eng kichik bo‘lagini tashkil qiladi. Sheva forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, yo‘sin, ravish kabi ma'nolarni bildiradi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik, leksik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik bir qismidir.

Shevalar o‘zlarining geografik o‘rni bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, o‘zbek tilining qorluq chigil-uyg‘ur guruhiga kiruvchi Andijon, Toshkent, Marg‘ilon, Samarqand, Buxoro, Kattaqo‘rg‘on, Qarshi, Urgut kabi kichik tarmoqlarni tashkil qiladi. Qipchoq guruhiga esa mang‘it, ming, yuz, nayman, chig‘atoy kabilar kiradi. Shevalar o‘zaro birikib, lahjalarni tashkil etadi. Sheva va lahjalar o‘zbek milliy tilida o‘rganiladi. Sheva va lahja adabiy til tushunchasiga kirmaydi. Lekin ular o‘zbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qiladi.

Lahja arabcha so‘z bo‘lib, ifoda, ovoz, sheva ma'nolarini anglatadi. O‘zbek shevashunosligida lahja shevalarning asosiy xususiyatlarini o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisini bildiradi. Bu lahja atamasining keng ma'noda qo‘llanilishidir. Masalan, o‘zbek tilining qarluq -chigil-uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari bunga misol bo‘la oladi. Lahja atamasi so‘nggi yillargacha bo‘lgan lug‘atlarda eskirgan so‘z sifatida qayd etilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda bunday belgisiz qo‘llangan.



Dialekt lotincha soʻz boʻlib, shevaga nisbatan keng maʼnoda qoʻllanadi. Adabiy tildan oʻzining baʼzi bir xususiyatlari (fonetik, grammatik, leksik) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq boʻlagi dialekt deyiladi. Amaliy hayotda esa oʻzaro anglashish yoki anglashishmaslik hisobga olinadi. Masalan, oʻzbek tilining oʻgʻuz dialekti, qipchoq dialekti.

Professor Fozi olim Yunusov oʻzi toʻplagan juda boy daliliy materiallarga suyangan holda 1936- yilda nashr etilgan "Oʻzbek lahjalarining tasnifida bir tajriba" asarida oʻzbek shevalarini uch katta guruhga boʻlib tasnif qildi va shu asosda tasnif holatini ham berdi: 1. Oʻzbek-qipchoq lahjasi 2. Turk-Barlos lahjasi 3. Xiva-Urganch yoki oʻgʻuz lahjasi

V.V. Reshetov oʻzbek shevalarining tarixiy lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qardosh tillar (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda oʻzbek shevalarining tasnif shevalarini tuzdi.

Adabiy tilning shakllanishida bevosita ishtirok qilgan baʼzi oʻzbek shevalarining unilari oʻziga xos qator xususiyatlarga ega. Toshkent— Fargʻona tilidagi shahar shevalari hamda shahar shevalarining leksik-grammatik va talaffuz xususiyatlariga oʻxshash boʻlgan qishloq shevalari adabiy tilning shakllanishida muhim rol oʻynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toʻychiboyev B., Hasanov B. Oʻzbek dialektologiyasi. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil.
2. Reshetov V., Abdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi. "Oʻqituvchi" nashri. Toshkent. 1978.
3. Yer yuzi bir dashtu sahro boʻlsa, gulzori ilm, Sahnai olamni boʻlmoqda namudori ilm. Oraziy.